



NEMIS YOSHLARI TILIDA FRAZEOLOGIZMNING DISKURSIV QO'LLANILISHI

Islamov Zoyir Asadovich

Anotatsiya: *Ushbu maqolada nemis tilidagi frazeologik antroponimlarning kelib chiqishi va semantikasiga ko'ra tasnifi haqida so'z boradi. Shuningdek, frazeologik antroponimlar gapda qo'llanilishi misollar yordamida tahlil qilingan va ularning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, frazeologizmlar, frazeologik antroponimlar, frazeologik atamalar, kommunikativ frazeologizmlar, evfimizm.*

Abstract: *The article deals with the etymological and semantic classification of the German phraseological anthroponyms. In addition, the use of the phraseological antonyms in the sentence with examples was analyzed and the peculiarities determined.*

Keywords: *culture, phraseology, phraseological anthroponyms, phraseological terms, communicative phraseology, euphemism.*

Аннотация: *В статье рассматривается этимологическая и семантическая классификация немецких фразеологических антропонимов. Кроме того, проанализировано использование фразеологических антонимов в предложении с примерами и определены особенности.*

Ключевые слова: *культура, фразеология, фразеологические антропонимы, фразеологические термины, коммуникативная фразеология, эвфемизм.*


Frazeologizmlar madaniyatni aks ettiruvchi va milliylikni namoyon qiluvchi birliklar hisoblanadi. Fraeologizmlar leksik tarkibi asosan turdosh otlardan juda kam xolatlarda esa atoqli otlardan tashkil topadi: über den Berg sein, etwas durch die Blumen sagen, das dicke Ende kommt nach va boshqalar. Atoqli otlar qo'llanilgan frazeologizmlar turdosh otlar qo'llanilgan frazeologizmlardan nisbatan ancha kam. Shunday bo'lsa-da ular lingvomadaniy xususiyatga ega bo'lib, u yoki bu mamlakatning dini, adabiyoti, xalq ijodiyoti va tarixidan so'zlaydi. Til madaniyatning bir bo'lagi bo'lgani kabi, madaniyat ham tilda namoyon bo'ladi. Unda xalqlarning dunyo qarashi, tasavvurlari va tarixi o'z ifodasini topadi. Shunday frazeologizmlar orasida frazeologik antroponimlar alohida o'rin tutadi. Morfologik xususiyatiga ko'ra frazeologik antroponimlar shaxs ismlari qo'llanilgan frazeologizmlar, referensial frazeologizmlar va kommunikativ frazeologizmlar mavjud. [1, c. 36]

MUHOKAMA VA NATIJALAR .Shaxs ismlari atamalar terminologik frazeologizmlarni yasashda keng qo'llaniladi [2, c.491]. Kompozitalarni yasashda ham shaxs ismlari muhim funksiyani amalga oshiradi. Terminologik frazeologizmlarning komponenti sifatida ismlar ma'lum fan rivojiga o'z hissasini qo'shgan shifokor, tadqiqotchi, ixtirochi va kashfiyotchidan darak beradi. Masalan, shifokorlarning ismlari ma'lum inson organlari, sindrom yoki kasallik, davolash yoki operatsiya qilish yo'lari bilan bog'langan holda u yoki bu fanga kirib kelgan. Masalan: Basedowsche Krankheit






(bazedoa kasalligi), parkinsonsche Lähmung (parkinson kasalligi), Nisslsche Körperchen (Nissl tanasi), Morbus Koch (sil kasalligi) va boshqalar. Kimyo, fizika, biologiya va matematika va boshqa ko'pgina fanlarda ham shaxs ismlari atamalar shakllanishida muhim o'rin egallagan. Bundan tashqari shunday frazeologik antroponimlar borki ular ikki so'zdan tashkil topadi va butun bir hodisa yoki jarayonni aks ettiradi: Merphys Gesetz: sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizlik baribir (bir kun) sodir bo'ladi. Bu frazeologik atama Amerikaning Merfi qonunidan kelib chiqqan va kapitan Edvard Merfiga borib taqaladi. U AQSh harbiy-havo kuchlari nomidan ish jarayonlarini tekshirish chog'ida noto'g'ri bajarish ehtimoli bo'lgan ish yoki narsa kunlardan bir kun baribir noto'g'ri qilinishi mumkinligiga ishonch hosil qiladi [3, s. 534]. Bunga sabab mashg'ulotdagi bir tajribaning ba'zi sabablarga ko'ra muvaffaqiyatsiz yakunlangani bo'lgan. Yoki Parkinsonisches Gesetz iborasini ham misol keltirish mumkin. Ishni Parkinson qonuniga muvofiq taqsimlash: hokimiyat va korxonalaridagi byurokratik ishlarni berilgan muddat kelguncha cho'zish, samarasiz ishlash ma'nolarini bildiradi. Ingliz tarixchisi va jurnalisti Cyriril Northcote Parkinsonning bunday istehzoli qonuni byurokratik insitutning ishni tashkil etishini tanqid qiladi, xodimlar shunchaki ish bilan ta'minlanishi uchungina o'ylab topilgandek qoidalar mavjud byurokratik institutlar ish faoliyatini tanqid qiladi [4; 1142]. Chaba Fo'ldes atoqli otlar qo'llanilgan frazeologizmlarning evfemistik xarakteriga ega ekanligini ta'kidlaydi [5; 132]. Masalan, Freund Hein (der Tod) [4; 693], in Abrahams Schoß eingehen (sterben) [4; 59], den alten Fritzen besuchen (sterben) [4; s. 476], zu Vater Phillip gehen (in das Gefängnis müssen), zu Tante Meier (gehen) müssen (heraus/raus müssen) [6; s. 833], ein Keinsmal tragen (als Mörder gekennzeichnet sein) [4; s. 792], in Adamskostüm (nackt (von männlichen Personen)), die schnelle Kath(e)rin(e) haben (Durchfall haben) [4; 816]. Bundan tashqari frazeologizmlar biror mamlakatning tarixi va madaniyatini aks ettirishi mumkin. Masalan, Neckermann macht's möglich iborasi reklama sohasidagi shior hisoblanadi. Ushbu reklama shiori Savdogar Josef Nekkerman bilan bog'liq: Wer einmal nur im Monat kann und möchte gerne täglich, Der wende sich an Neckermann, den Neckermann macht's möglich. Nekerman 1950-yilda Yozef Nekermann toponimidan asos solingan Germaniyadagi mahsulotlarni yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi yirik kompaniya bo'lgan. Kompaniya tomonidan chop etilgan katalogda mahsulotlar va narx-navolar ko'rsatilgan bo'lib, iste'molchilar bu mahsulotlarga buyurtma berishgan va bu mahsulotlar ularga yetkazib berilgan. Iste'molchilarning qiyinchiliklarsiz o'z buyurtmalarini olish imkoniyati ushbu reklama shiorining frazeologizmga aylanishiga sabab bo'lgan. Masalan, jemand hat sein Abitur (seinen Führerschein (u.a.) bei Neckermann gemacht ya'ni jemand hat sich bei einer bestimmten Prüfung nicht sehr anstrengen müssen, um ein gutes Ergebnis zu bekommen. [4, 1086] Biror bir narsani oson qo'lga kiritilgan taqdirda bei Neckermann gemacht iborasi qo'llaniladi. Kundalik hayotimizdan yana bir misol keltirishimiz mumkin: Meine Freundin hat ihre Qualifikationsarbeit bei Neckermann gemacht yoki Mein Nachbar hat seine neue





Wohnung bei Neckermann gemacht. Bu gaplardan kimdir bitiruv malakaviy ishini yozishda qiynalmagani yoki kimningdir osonlikcha xech qanday qiyinchiliklarsiz yangi uy sotib olganligini tushunib olishimiz mumkin. Frazzeologik antroponimlarni kelib chiqish manbasi va semantikasiga ko'ra besh yirik guruhga bo'lish mumkin: 1) Antik mifologiyaga oid antroponimlar qo'llanilgan frazeologizmlar: Ein wahrer Herkules sein: yengib bo'lmas darajada kuchli bo'lish, Gerkules kuchiga ega bo'lish. Ko'chma ma'noda jismonan kuchli, zabardast odamga nisbatan qo'llaniladi. etw. ist eine Herkulesarbeit: ein ungeheures Pensium, das aufgearbeitet werden muss. Bajarilishi kerak bo'lgan juda katta hajmdagi ishni anglatadi. [4; 702] Masalan: Gerkulesning kuch-quvvati bilan bog'liq yana bir frazeologizm mavjud. Biroq unda Gerkulesning ismi keltirilmagan: Einen Augiasstall reinigen: eine durch lange Vernachlässigung entstandene sehr große Unordnung aufräumen ya'ni uzoq vaqt davomida e'tiborsizlik natijasida yuzaga kelgan katta tartibsizlikni tozalash degani. Rivoyatlarga ko'ra Elis qiroli Avgiasning 3000 qoramol boqiladigan otxonasi bo'lgan va u 30 yildan beri tozalanmagan bo'lgan. Shunda Gerkules aql bovar qilmas ish qiladi, ya'ni o'sha otxonada ikkita darcha ochib, ikki daryoning suvini birlashtirib, otxona tomon yo'naltiradi va natijada suv axlatni oqizib ketadi. Bu ibora ancha yillar oldin paydo bo'lgan bo'lsa ham, IX asrga kelibgina nemis adabiyotida o'z o'rnini topdi [3; 118]. Ushbu frazeologik antroponimning qo'llanilishiga quyidagi gapni misol keltirish mumkin: Auf jeden Fall wünschen wir, dass die neue Schulleiterin ihre Verantwortung, diesen Augiasstall zu reinigen, voll und ganz übernimmt. Ushbu jumlada gap yillar davomida e'tiborsizlik natijasida yuzaga kelgan va «yig'ilib» qolgan muammo va tartibsizliklarning bartaraf qilinishi haqida ketgan. 2) Injilda nomi keltirilgan antroponimlar va ular bilan ro'y bergan voqeahodisalar aks etgan frazeologizmlar. Bunday frazeologizmlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin: der alte Adam (die alten Fehler, Gowohnheiten, Ansichten usw.), der alte Adam regt sich wieder (die alten Fehler Ansichten usw. brechen wieder durch.), den alten Adam ausziehen (oder von sich werfen: die alten Fehler usw. Ablegen, ein neuer Mensch werden) va boshqalar. Ushbu guruxga kiritilgan frazeologik antroponimlarning eng ko'p qismi Adam ya'ni Odam Ato bilan bog'liq. Bunday frazeologizmlarga Wie in Abrahams Schoß frazeologizmini ham misol keltirish mumkin. Sicher und geborgen ma'nosini anglatuvchi ushbu frazeologizm ishonchli va ximoyalangan degan ma'nolarni anglatadi. Uning ko'ngil hotirjamligida va yaxshi sharoitda yashash, g'am-tashvishsiz hayot kechirish ma'nolari xam bor. Wie in Abrahams Schoß frazeologizmi Injilda keltirilgan kambag'al Lazar va bir badavlat kishi haqidagi rivoyatga asoslanadi. Rivoyatga ko'ra kambag'al va bechora Lazar o'limidan so'ng farishtalar tomonidan Ibrohimning oldiga olib borilgan va u yerda xavfsiz va har qanday tashvishlardan holi bo'lgani aytiladi [4, 59]. Ushbu frazeologizm bugungi kunga kelib nafaqat abadiy hotirjamlikni, balki moddiy ta'minlanganlik ma'nosini xam anglatadi. Masalan: Seitdem Otto von seinem Onkel ein großes Vermögen geerbt hatte, lebt er sicher wie in Abrahams Schoß. Yoki: Wenn du eine stabile Arbeit mit gutem Gehalt findest, wirst du





so sicher wie in Abrahams Schoß. Xar ikki gapda ham moddiy ta'minlanganlik nazarda tutilgan. 3) Jahon adabiyoti durdonalarida keltirilgan antroponimlar qo'llanilgan frazeologizmlar: Bunday turdagi frazeologizmlarga Shekspirning Hamlet asari yoki Gyotening Faust asarlarida, aka-uka Grimmlarning ertaklaridan olingan frazeologik antroponimlarni misol keltirish mumkin. Eine Gretchenfrage stellen frazeologizmi shunday frazeologizmlarga misol bo'la oladi. Gretchenfrage: jemandem Gretchenfrage stellen: ihn zum Bekennen Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social seiner eigentlichen und wahren Meinung veranlassen, ihm eine zentrale, ja die Gewissensfrage stellen [4; 581]. Gretchenfrage nozik savolni anglatadi. Bu odatda biror nimani tan olish yoki e'tirof etishga olib keladi. Savol shaxsiy bo'lishiga qaramay, javobi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan savolga nisbatan Gretchenfrage deyiladi. «Nun sag, wie hast du's mit der Religion?» Gyotening Faust asarida Faust Margaretaga shu savolni beradi. Xuddi shu hodisa nozik va noqulay, biroq hal qiluvchi ahamiyatga ega savol sifatida frazeologizmga aylangan [4; 581]. Gretchenfrage nafaqat kishining e'tiqodi, balki dunyoqarashi, shaxsiy xayoti, qolaversa siyosatga tegishli savollarga nisbatan ham qo'llaniladi. Aka-uka Grimmlarning «Die sieben Schwaben» ertagidan olingan ibora ham frazeologizmga aylangan: Hannemann, geh du voran! Hanneman ismi Johannes ismidan olingan. Ushbu frazeologizm biror kishini (u yoqtirmaydigan) ishni qilishga yuborish chog'ida qo'llanilib, olg'a! degan ma'noda qo'llanilishi mumkin. Aka-uka Grimmlar ertagiga ko'ra sarguzasht izlab yo'lga chiqqan 7 aka-uka sayohat davomida noma'lum bir mavjudotga to'qnash kelishadi va unga yaqinlashishga qo'rqishadi. Aka-ukalar uning nima ekanligini aniqlashga urinishayotganda 6-uka, ya'ni Hansga quyidagi so'zlarni aytishadi: Hanneman geh du voran! Du hast die größten Stiefel an, Daß dich das Tier nicht beißen kann [4; 660]. Keyinchalik esa uning oddiy quyon ekanligi ayon bo'ladi. Ushbu frazeologizm aynan kimnidir u xohlamasa-da biror ishni boshlab berishga yoki biror ishni qilishga undash ma'nosida qo'llaniladi. Masalan: «-Ich traue mich nicht, diesen gefrorenen Weg zu gehen. - Hannemann, geh du voran!». Misolda kimningdir muzlagan yolakdan yura olishga ko'zi yetmaetgan bo'lsa-da uni kimdir shu yoldan o'tishga undayotgani ma'nosini anglatayotganini ko'rish mumkin. 4) Uzoq va yaqin o'tmishda yashab o'tgan kishilar ismlari tilga olingan frazeologizmlarda mamlakat tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan, ajralib turuvchi xususiyatlari bilan tanilgan qirollar yoki xalq orasida obro' qozongan kishilar ismlari qo'llaniladi. Masalan, Prussiya qiroli Fridrix II ning hazinaboni Buxhols bilan bog'liq: Dazu hat Buchholz kein Geld (sagt der Alte Fritz) frazeologizmi Germaniya tarixida yashab o'tgan Fridrix II davriga borib taqaladi. Qirol biror taklifni qabul qilishni hohlamaganida yoki ayniqsa yetti yillik urushdan so'ng mablag' yetrli bo'lmaganda «Dazu hat Buchholz kein Geld» deb aytgan. Fridrix II hukmronligi davrida bu ibora shunchlik ko'p marotaba takrorlanganki, u turg'inlashib frazeologizmga aylangan. Yana bir frazeologizm XVIII asrda Germaniyada yashab o'tgan o'z davri uchun Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences arifmetika, geometriya va algebra ilmi bo'yicha juda chuqur bilimni egallagan va amaliy hisobni





o'rgatuvchi bir qancha risolalar muallifi Adam Ries ismi bilan bog'liq. Shunisi e'tiborga loyiqlik, Adam Rize o'z asarlarini o'sha paytdagi ko'p asarlar yozilgan lotin tilida emas, balki nemis tilida yozgan. Rizening nemis tilida yozilgan darsliklari katta nashrlarda chop etilgan. Natijada uning asarlari ko'pgina kitobxonlar ommasiga yetib borgan. Rize sanoq ustasi sifatida oddiy odamlar orasida ham mashhur shaxs bo'lgan. U o'z uyida xususiy matematika maktabini ochgan va hisob ilmidan saboq bergan. [6]. Uning bu mashxurligi nach Adams Riese iborasining yuzaga kelishiga turtki bo'lgan. Ushbu frazeologizm XVIII asrda paydo bo'lgan bo'lib, bugungi kunda ham keng qo'llaniladi. Nach Adams Riese - richtig gerechnet frazeologizmi to'g'ri hisoblangan, aniq degan ma'nolarni anglatadi va hisoblash natijasining aniq va to'g'riligini ta'kidlash uchun qo'llaniladi, Masalan: Nach Adam Riese macht das zwölf Euro [3; 34]. 5) Nemis xalq ismlari qo'llanilgan frazeologik antroponimlar Nemis xalqlari orasida Heinrich, Konrad, Hans, Otto va Peter ismlari ko'p qo'yilgan va juda ommabop hisoblangan. Shuning uchun xam bu ismlar bir qancha frazeologizmlarda qo'llanilgan. Masalan Hinz und Kunz - jederman: Ich fahre nicht mehr auf diese Insel, da macht doch heute Hinz und Kunz Urlaub. [3; 369]. Bundan tashqari quyidagi misolda ham biror joyga hamma borgani haqida gap boradi: Letzte Woche hat mein Onkel geheiratet. Hinz und Kunz war eingeladen. Ushbu misoldan bir kishining to'yiga xamma tanishlari taklif qilinganini anglab olish mumkin.

XULOSA Xulosa qilib aytganda frazeologik antroponimlarda shaxs ismlari yoki ularning qisqartirilgan shakllari ham qo'llanilishi mumkin. Tarkibida shaxs ismlarining xar qanday ko'rinishi (ism, familiya yoki ismlarning qisqartirilgan shakllari) mavjud bo'lgan frazeologizmlarni frazeologik antroponimlar deb atashimiz mumkin. Frazeologik antroponimlar turli frazeologik birliklar tarkibida kelishi mumkin: frazeologik atamalar (Basedowsche Krankheit, parkinsonsche Lähmung, Parkinsonisches Gesetz), frazeologik antroponimlar (Gretchenfrage, nach Adams Riese). Frazeologik antroponimlar frazeologik atamalar tarkibida ushbu ixtiro yoki kashfiyotning muallifini aks ettiradi. Frazeologik antroponimlarda esa ismi keltirilgan shaxsga qiyoslanadi: arm wie Lazarus, ein wahrer Herkules sein, ein wahrer Nimrod sein. Bundan tashqari frazeologizmda tilga olingan kishining ma'lum xususiyati yoki holati biror kishidagi bor xususiyat yoki holatiga qiyoslanadi: dazu hat Buchholz kein Geld, alt wie Methusalem, vom Saulus zum Paulus werden. Bunday frazeologizmlarda tarixda o'z o'rniga ega bo'lgan taniqli shaxslar mamlakat rivojlanishi va undagi reformalarga o'z hissasini qo'shgan shaxslar ismlari qo'llaniladi. Frazeologik antroponimlar yana bir muxim xususiyatlaridan biri ularning evfemistik xususiyatga egaligida ko'rinadi. Bunda ba'zi so'zlarni boshqa so'zlar birikmasi bilan nomlaydi: Freund Hein (Tod), den alten Fritzen besuchen (sterben), die schnelle Kath(e)rin(e) haben (Durchfall haben).





REFERENCES :

1. Harald Burger. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin, Erich Schmidt Verlag, 2010.
2. Harald Burger. Phraseologie: ein internationales Handbuch zeitgenössischer Forschung, Tom 1. Walter de Gruyter, 2007.
3. Duden. Redewendungen. Wörterbuch der deutschen Ideomatik. Band 11. 3. Aufl. Mannheim, Dudenverlag, 2008.
4. Wolf Friedrich. Moderne deutsche Ideomatik. 2. Aufl. München, Max Hueber Verlag, 1976.
5. Röhrich L. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg, Herder Verlag, 2001.
6. Földes Csaba. Onymische Phraseologismen als Objekt des Sprachvergleichs. EUROPHRAS 88. 1989, (127-140)

